

TASDIQLAYMAN  
"Kiberxavfsizlik markazi"  
DUK direktori  
O.Mirzayev  
2022-yil "22" "09"

## AXBOROT XAVFSIZLIGI MENEJMENTI TIZIMLARINI SERTIFIKATLASHTIRISH ORGANING XOLISLIGI VA MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH SIYOSATI

Ushbu siyosatning maqsadi axborot xavfsizligi menejmenti tizimlarini sertifikatlashtirish organi (keyingi o'rinlarda – AXMT SO) faoliyatiga ishonch darajasini oshirishdan iborat.

Xolislik AXMT SO tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning asosiy tamoyillaridan biridir. AXMT SO o'z DSt ISO/IEC 17021-1 da belgilangan xolislik talablarini bajaradi.

AXMTning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruvi xolislikni ta'minlaydigan va xolislikni xavf ostiga qo'yadigan tijorat, moliyaviy yoki boshqa bosim mavjud bo'lmagan tarzda tashkil etilgan.

AXMT SO mijozning AXMT sertifikatlashtirish faoliyatini amalga oshirish jarayonida o'z xodimlarining xolisligi va mustaqilligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rishni zimmasiga oladi va taqdim etilayotgan xizmatlarning ob'yektivligi va xolisligini ta'minlash uchun har qanday manfaatlar to'qnashuvini boshqaradi hamda o'z vaqtida bartaraf etadi.

AXMT SO o'z faoliyatining xolisligini shubha ostiga qo'yadigan xizmatlarni taklif qilmaydi hamda xizmat ko'rsatmaydi.

AXMT SO quyidagilarni kafolatlaydi:

- sinov natijalari asosida chiqarilgan xulosalar ob'yektivligi bo'yicha ishlarning mustaqilligi va xolisligini, shu jumladan sertifikatlashtirish faoliyati doirasida xolislikni xavf ostiga qo'yadigan tijorat, moliyaviy yoki boshqa bosimga yo'l qo'ymaydi;

- akkreditatsiya sohasida AXMT SO sertifikatlashtirish natijalarini mijoz va boshqa ta'sirlardan muhofazada bo'lishini;

AXMT SO quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- xolisligini shubha ostiga qo'yadigan tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etmaslik;

- sertifikatlashtirish ishlari davomida, AXMT OS boshqaruv tizimining ichki auditi davomida qaror qabul qilishda xolislikni ta'minlash.

AXMT SO qarorlari sertifikatlashtirish auditi natijalarining ob'yektiv dalillariga asoslanadi, ularga boshqa manfaatlar yoki boshqa shaxslar ta'sir qilmaydi.

AXMT SO har yili boshqaruv tahlili paytida ko'rib chiqiladigan va takomillashtiriladigan xatarlarni boshqarish tizimini (11-protsedur hujjat) amalga oshirish orqali xolislik uchun potensial xatarlarni doimiy ravishda baholaydi.

Agar AXMT SONing xolisligi hamda mustaqilligiga nisbatan xatarlar aniqlansa, AXMT xodimlari ularni hujjatlashtiradi va xatarlarni bartaraf etish yoki minimallashtirish choralarini ko'radi, shuningdek qolgan xavflarni hujjatlashtiradi.

AXMT SO o'z faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlarini aniqlaydi va tahlil qiladi, ularning oldini olish va hal qilish choralarini ishlab chiqadi. Agar xolislikga nisbatan xavf aniqlansa, AXMT SO rahbari uni bartaraf etish va minimallashtirish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi.

AXMT SO rahbari

S.Tsoy

